

**MAKTAB O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI  
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Muhammadiyev Lochin G'ayratovich**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbliги atroflicha tahlil etiladi. Muallif vatanparvarlik tushunchasining mohiyati, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolishdagi ahamiyatiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, mavjud muammolar va takliflar yoritiladi. Maktab davridagi vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-mafkuraviy va ma'naviy ahamiyati chuqur asoslangan holda ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, maktab o'quvchilari, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviy immunitet, globallashuv, fuqarolik ong, ijtimoiy faollik, ta'lim tizimi, mafkuraviy barqarorlik, milliy g'urur.

Bugungi kunda yurtimizda o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini takomillashtirish natijasida xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosini yoshlar ko'z o'ngida gavdalantirish, uning hayotbaxsh jihatlaridan foydalangan holda ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, uslubiy ta'minotini kengaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash..."[1] kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqish zaruratiniz izohlaydi. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va g'urur tuyg'ularini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, bu jarayonda maktab o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. Chunki aynan maktab davrida shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodi va hayotiy qarashlari shakllanadi. Vatanparvarlik — bu nafaqat Vatanga muhabbat, balki uning tarixini, madaniyatini, tilini, buyuk siymolarini hurmat qilish, uni ardoqlab yashash

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

demakdir. Maktab yoshidagi bolalarning qalbida bu tuyg‘ularni uyg‘otish orqali biz nafaqat yaxshi o‘quvchini, balki yurtga sodiq, ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalaymiz.

Globallashuv ta’sirida internet va xorijiy madaniyatlarning keng tarqalishi ayrim hollarda yoshlarning o‘z milliy qadriyatlariiga befarq bo‘lib qolishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda o‘quvchilar ongida vatanparvarlikni mustahkamlash, ularni o‘z millatiga hurmat ruhida tarbiyalash muhimdir. Yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish – Vatanparvarlik ruhidagi tarbiya yoshlarni turli zararli g‘oyalardan, ekstremistik oqimlardan himoya qilishda muhim omildir. Kelajak uchun mas’uliyat hissi mакtabda o‘rgatilgan vatanparvarlik saboqlari kelajakda o‘quvchilarning yurt ravnaqi uchun fidokorona xizmat qilishlariga zamin yaratadi. Har bir xalq o‘z kelajagini, yurt taraqqiyotini yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘laydi. Zero, ma’naviy yetuk, ilmli va vatanparvar yoshlar jamiyatning eng mustahkam tayanchidir. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri — yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, xalqiga hurmat, milliy qadriyatlarga ehtirom ruhini shakllantirishdir. Ayniqsa, bu masala mакtab bosqichidan boshlanishi kerak. Chunki aynan mакtab – shaxs shakllanishing, fuqarolik ongining, ma’naviy-estetik qarashlarning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Vatanparvarlik — bu shunchaki so‘z emas. U inson qalbining eng yuksak tuyg‘ularidan biridir. Bu — ona zamin, millat, til, madaniyat, tarix va qadriyatlarni chin dildan sevish, ardoqlash, ular bilan faxrlanish, ayni paytda bu qadriyatlarni himoya qilish, rivojlantirish va ulug‘lashga bo‘lgan intilishdir. Vatanparvarlik – g‘urur, mas’uliyat va sadoqat uyg‘unligidir. Yosh avlod qalbida bu tuyg‘ularni shakllantirish – mustahkam fuqarolik jamiyatini barpo etish, tinchlik va barqarorlikni asrash, milliy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi axborot oqimi, texnologik taraqqiyot va madaniy aralashuv jarayonlari yosh ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ommaviy madaniyat ta’sirida o‘z milliy qadriyatlarni unutgan, o‘zligini yo‘qotayotgan yoshlar soni ortmoqda. Shu bois, o‘quvchilarga erta yoshdan vatanparvarlik tarbiyasini singdirish, ularni milliy ong va g‘urur bilan qurollantirish muhim vazifadir. Maktab o‘quvchilarida Vatanga sadoqat ruhini uyg‘otish – ularni kelajakda ijtimoiy mas’uliyatli, faol, tashabbuskor shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Bunday yoshlar nafaqat o‘z hayoti, balki jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun ham mas’uliyatni his eta boshlaydi. Zamonaviy tahdidlar – ekstremizm, radikalizm, g‘oyaviy tajovuzlar yoshlар ongiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Vatanparvarlik ruhi bilan tarbiyalangan yoshlар esa bunday xavfli g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetga ega bo‘ladi. Ular yot g‘oyalarga ergashmaydi, aksincha, o‘z yurtini himoya qiluvchi, g‘oyaviy barqaror kuchga aylanadi.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Mustaqillik tufayli xalqimiz o‘z tarixini va hayot merosini yangidan tiklamoqda. Hayotimizning har bir davri qaytadan ko‘rib chiqilmoqda, jadidchilik harakatining asl ma’nosи ochib berilmoqda. Cho‘lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriylар va boshqalarning g‘oyalari xalqimizga yetkazilmoqda. Darhaqiqat, xalqimiz azalazaldan insoniy fazilatlarga boy bo‘lgan. Vatanparvarlik tarbiyasi mustaqil O‘zbekiston oldida turgan zarur vazifalardan biridir. Chunki sobiq sho‘ro tuzimi paytida bu haqda o‘ylash ham, amalda bajarish ham mumkin emas edi. O‘z kelajagini yaratayotgan O‘zbekiston o‘z vatanparvarlarini, o‘z himoyachilarini tarbiyalab yetishtirishi, o‘z hududlarining daxlsizligini ta’minlashi lozim. Harbiylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanish lozim. Ayniqsa, xalqimizning tarixi, bosib o‘tgan yo‘li, undagi tarixiy voqealar namuna bo‘la oladi [2].

Xulosa qilib aytganda, mакtab o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish — bu bugunning emas, balki kelajagimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Har bir o‘quvchi qalbida “Bu mening yurtim, men uning kelajagi uchun mas’ulman” degan g‘oyani uyg‘otish orqali biz nafaqat kuchli shaxsni, balki kuchli jamiyatni, kuchli davlatni tarbiyalaymiz. Bu esa O‘zbekistonning kelajagi yorqin, tinch va farovon bo‘lishining kafolatidir. Xulosa o‘rnida bir nechta tavsiyalar berib o‘tamiz:

- Maktablarda interfaol va innovatsion metodikalar asosida vatanparvarlik darslarini tashkil qilish – drama, simulyatsiya, rol o‘yinlari yordamida o‘quvchilarning hissiy dunyosiga kirib borish;
- Raqamli platformalar orqali ma’naviy-mafkuraviy kontent yaratish – yoshlar ko‘p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarda milliy g‘urur va Vatanga muhabbatni targ‘ib qiluvchi motivatsion kontentlar tayyorlash;
- Tarixiy, milliy qahramonlar hayotini o‘rganishga asoslangan loyihalarni rag‘batlantirish – o‘quvchilarni o‘z hududidagi tarixiy shaxslar, urush qatnashchilar, mehnat fidoyilari haqida ilmiy izlanishga jalb qilish;
- Oila – maktab – mahalla hamkorligini kuchaytirish – vatanparvarlik tarbiyasida oila va mahallaning faol ishtirokini ta’minlash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. "Vatan himoyasi - muqaddas burch". Toshkent. "O'zbekiston". 2001-yil, 46-b.